

QANOTLI BIRLIKLARNING O'RGANILISH OMILLARI

*Isakova Guzalxon Ne'matovna,
filologiya fanlari doktori, professor v.b.
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
E-mail: guzal.isak@gmail.com
ORCID: 0009-0008-3168-9580*

Annotatsiya. Dunyo tilshunosligida turg'un birliklar va ularning nutqda qo'llanilishi borasida fundamental ishlarni amalga oshirishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Jumladan, nutqning ta'sirchanligini, shiraliligini oshirishga xizmat qiladigan va obrazli sitata sifatida foydalanilayotgan aniq iboralar, ya'ni *qanotli so'z va iboralar* muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi maqolada qanotli birliklarning muhim belgilarini aks ettiruvchi o'ziga xos xususiyatlari, boshqa til birliklaridan farqli jihatlari hamda ularning alohida til birligi ekanligi borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, qanotli so'z, qanotli ibora, qanotli birlik, til birligi, obrazli sitata, lo'nda, obrazli, tahlil.

ФАКТОРЫ ИЗУЧЕНИЯ КРЫЛАТЫХ ЕДИНИЦ

*Исакова Гузалхон Неъматовна,
доктор филологических наук, и.о.профессор
Государственный институт искусств и культуры Узбекистана*

Аннотация. Сегодня в мировом языкознании все больше возрастает интерес к созданию фундаментальных работ об устойчивых единицах и о мерах использования их в речи. В частности, важную роль играют определенные устойчивые выражения, т.е. *крылатые слова и выражения*, которые служат для повышения красочности речи и используются в качестве образной цитаты. В данной статье рассматриваются специфические особенности крылатых единиц, отражающие их важные особенности,

отличия от других языковых единиц, а также их статус как самостоятельной языковой единицы.

Ключевые слова: Лингвистика, крылатое слово, крылатое выражение, крылатая единица, языковая единица, образная цитата, лаконичный, образный, анализ.

FACTORS OF TRAINING OF WINGED UNITS

Isakova Guzalkhon Ne'matovna,

Doctor of Sciences Philology, act.professor

Uzbekistan state Institute of Arts and Culture

Abstract. In world linguistics, there is a growing interest in our fundamental works on stable units and their use in speech. In particular, an important role is played by certain expressions, i.e. winged words and expressions, which serve to increase the effectiveness and colorfulness of speech and are used as a figurative quotation. This following article discusses the specific features of winged units, reflecting their important features their differences from other language units, and their status as a separate language unit.

Key words: Linguistics, winged word, winged expression, winged unit, language unit, figurative quotation, laconic, figurative, analysis.

KIRISH

Ko'plab lingvistik tadqiqotlarda "qanotli so'z" yoki "qanotli ibora" tushunchalari til leksik-semantik sistemasining aniq maqomi belgilanmagan birligi sifatida qaraladi va ushbu tushunchalar ostida boshqa til birliklari ham qo'llanib kelinmoqda. Shunga ko'ra, qanotli birliklarini boshqa til birliklaridan aniq chegaralash, ularni alohida birlik sifatida til sistemasidagi o'rnini aniqlash, ularga xos lisoniy-madaniy xususiyatlarni izohlash, ularning ahamiyatini ochib berish, shuningdek, ularning badiiy matndagi roli hamda ahamiyatini yoritib berish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qanotli birliklarni o'z ichiga olgan ilk izlanishlarda ularga alohida til birligi sifatida qaralmagan. Masalan, S.V.Maksimov asosan, maqol, matal va obrazli leksemalarni o'rganib chiqadi va ularni "qanotli so'zlar" [6] deb ataydi. I.Ye.Timoshenko turli til birliklarining dastlabki manbasini qidirib, ularni "Rus maqol va matallari" [10] deb nomlydi. M.M.Mixelson aforizmlarni, maqol va matallarni, obrazli so'zlarni "frazeologizmning bir ko'rinishi" [7] deb hisoblagan.

S.G.Zaymovskiy aforizmlarni, badiiy sitatalarni, shuningdek, tarixiy, badiiy, mifologik personajlar nomlarini "qanotli so'zlar" [3] sifatida ko'rib chiqadi. N.S.Ashukin va M.G.Ashukinalar [1] ham S.G.Zaymovskiy singari leksikografiya va frazeologiya amaliyotiga muvofiq ravishda qanotli iboralar va qanotli so'zlarni ajratmasdan ifodalagan.

A.D.Rayxshteyn o'zining "Немецкие устойчивые фразы" nomli qo'llanmasida "Qanotli iboralar – bu nutqdagi ma'lum tarixiy shaxs – yozuvchi, olim, siyosiy arbob va boshqalar tomonidan ilk bora aytilgan va hozirgacha o'sha biror badiiy asar yoki ba'zida muallifning o'zi bilan assotsiatsiyalanadigan turg'un iboralar" [9] deb yozadi. Qanotli iboralarni alohida "til aforizmlari" turkumi sifatida frazeologik tahlil qilishning ilk qadamini 1977-yili Y.Ye.Proxorov o'zining nomzodlik dissertatsiyasi [8] bilan boshlab bergan.

Shuningdek, 1980-yili nashrdan chiqqan "Русские пословицы, поговорки и крылатые выражения. Лингвострановедческий словарь"ga V.G.Kostomarov va Ye.M.Vereshaginlar tomonidan yozilgan so'z boshisida qanotli so'zlarni maqol va matallar qatorida alohida til birligi safiga kiritishadi. Jumladan, unda mualliflar: "Agar so'zlar, frazeologik iboralar va til aforizmlari (qanotli iboralar, maqol va matallar nazarda tutilgan) taqqoslansa, ularning barchasi klishe, ya'ni bir qolipdagi gaplar. Ular belgilardir, ular o'z ma'nosining asoslariga, sinonim va antonimlarga, funksional o'xshashlikka, paradigmaga ega bo'lishi mumkin", [12, 3-17] deb yozadilar.

Rus tilshunosligida 1980-1990-yillar oralig'ida qanotli so'z va iboralarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar olib borilishi natijasida bir qancha ishlar

maydonga keldi. 1993-1994-yillarda bo'lsa, san'at sohasidagi qanotli iboralar bo'yicha S.G.Shulejkovaning qator ishlari chop etildi va "qanotli iboralar" termini faqatgina tadqiqotchilar tomonidan nazariy jihatdan emas, balki lug'at amaliyotida ham faol qo'llana boshlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Frazeologiyaning rivojlanishi va frazeologik lug'atlarning vujudga kelishi o'z-o'zidan qanotli birliklarning umumiy hamda lingvistik klassifikatsiyasi bilan bog'liq savollarni tug'diradi. Shuningdek, "qanotli so'z" ostida ifodalanayotgan birliklarning o'zi ham struktur jihatdan turlicha: bular umumlashgan ko'chma ma'nodagi atoqli otlar, iboralar, shior va chaqiruvlar, frazalar, hazilomuz replika va boshqalar.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida Ukrainalik tadqiqotchilar A.P.Koval va V.V.Koptilovlarning ishlari maydonga keladi. Mualliflar qanotli birlik (qanotli so'z, qanotli ibora) termini borasida o'z qarashlarini bayon etishadi: "Qanotli so'zlar manbasi aniqlangan badiiy til leksikasi va frazeologiyaning obrazli elementlaridir", deb ta'riflashadi. Ular qanotli so'zlarni struktur jihatidan "atoqli qanotli so'z" va "qanotli iboralar"ga ajratishadi. Shuningdek, "atoqli qanotli so'zlar leksikaning bir qismi, qanotli iboralar bo'lsa frazeologiyaning bir qismi" ekanligini hamda "ularning tuzilishlaridagi farq ushbu ikki guruhni ajratib turuvchi yagona muhim jihati" ekanligini ta'kidlashadi. Mualliflar "Qolgan barcha xususiyatlari jihatidan qanotli so'zlar ham, qanotli iboralar ham yaxlit bir butunlikka ega ekanligini va shuning uchun ularni umumiy holatda "qanotli iboralar" [5, 29-30] deb atashni ilgari surishadi.

Tilshunos S.G.Shulejkova [13, 19] qanotli so'zlar borasida tadqiqot olib borar ekan, A.P.Koval va V.V.Koptilovlarning fikrini quvvatlaydi va bir tomondan qanotli so'zlar, boshqa tomondan qanotli iboralarni ajratish zarurligini to'g'ri deb hisoblaydi. Bir vaqtning o'zida har ikkisi uchun qanotli ibora yoki qanotli so'z terminini qo'llash ularning paydo bo'lish jihatidan ham tuzilishi jihatidan ham

mantiqqa to'g'ri kelmaydi va atoqli qanotli so'z bilan qanotli ibora o'rtasidagi farq faqatgina struktur jihatdan ekanligini ta'kidlaydi.

2000-yili rus tilidagi qanotli birliklarga bag'ishlangan "Большой словарь крылатых слов русского языка" [2] nomli lug'at chop etildi. Bu amaliyotga asoslangan va o'z mantig'iga ega lug'atdir. Biroq, fikrlarni o'rganish hali ham to'xtamaydi. Yaqindan o'rganib chiqilganda, qanotli birliklarning umumiy hajmida *Yahuda, Venera, Fantomas, Alfons, Sezar, Napoleon* kabi qanotli so'zlarning qiymati unchalik katta emasligi ko'rinadi.

S.G.Shulejkovaning "Крылатые выражения русского языка, их источники и развитие" nomli monografiyasida bu borada ma'lumotlar keltirilgan. Muallif M.I.Mixelsonning 1912-yildagi nashrida 10 %, S.G.Zaymovskiyda 9 % bir so'zdan iborat bo'lgan qanotli so'zlar mavjudligini, N.S.Ashukin va M.G.Ashukinalar to'plamining 1966-yildagi nashrida 9 % qanotli so'zlar hamda V.P.Berkov va V.M.Mokiyenkolar tomonidan chop etilgan to'plamda atiga 4 % qanotli so'zlarni tashkil qilishini ko'rsatib o'tgan.

Demak, tilshunoslikdagi qanotli birliklar fondining katta foizini tashkil etadigan *qanotli iboralar* tilshunoslarning alohida e'tiboriga loyiqdir. Shuning uchun bu borada ko'plab tadqiqotlar vujudga kelmoqda. S.G.Shulejkova turli uslublarda kuzatiladigan (ilmiy-ommabop, badiiy, publitsistik, so'zlashuv) qanotli birliklarni tahlil qilar ekan (yuqorida keltirilgan manba), o'z qarashlarini bayon qiladi. Uning fikricha, qanotli iboralarga til birliklarining uyg'un tizimi sifatida baho berilib, ularning barcha tarkibiy qismlari: manba bilan bog'liqlik (muallif; badiiy, mifologik, folklor yoki tarixiy personajlar; adabiyot yoki san'at asarlari; real voqealar bilan); alohida shakllanganlik (ular ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ma'lum grammatik qoidalar asosida baholangan); reproduktivlik (muloqot jarayonida hosil bo'lmaydi, balki tayyor birlik sifatida namoyon bo'ladi); komponent tarkibi va grammatik tuzilishi jihatidan barqarorlik va ma'no barqarorligi kabi differensial xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Qanotli birliklarga berilgan boshqa xususiyatlar differensial xarakterga ega emas. Masalan, ko'plab tilshunoslar tomonidan ta'kidlangan qanotli birliklarning

“kitobiylik” xususiyatini differensial deb qabul qilish noo‘rindir. Hozirgi kunda turlicha extiyojlarni qondirish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tobora kuchayib bormoqda va qanotli birliklar fondiga turlicha so‘zlashuv iboralarining aynan ushbu manbalardan kirib kelishi faol kuzatilmoqda.

Ikki tomonlamalik, ya’ni asl (tom) va majoziy ma’nolarning mavjudligi barcha qanotli iboralarga birday xos emas. Bu ma’noda biz N.D.Fedorenko, L.I.Sokolskaya va S.G.Shulejkovalar bilan hamfikrmiz. Ushbu turdagi birliklarni taqqoslab ko‘raylik:

*Je vous ai prévenu, j’ai fait ce que j’ai pu; il en sera ce qui pourra: pour moi, **je m’en lave les mains*** (Mérimée).

Kontekstda *s’en laver les mains*, ya’ni *qo‘llarini yuvmoq* qanotli iborasi asl ma’nosida emas, balki majoziy ma’noda “biror ishda o‘zini mas’uliyatdan xalos etish, biror natijadan umidni uzish”ni anglatmoqda. Lekin *Être au septième ciel* iborasida bunday holat kuzatilmaydi, ibora faqatgina “juda xursand bo‘lmoq” ma’nosini anglatadi:

*Mon cher, dit-il, je suis ravi de vous voir. Je suis aux anges de vous avoir retourné. **Je suis au septième ciel** que nous soyons réunis* (Blot).

Qanotli birliklarni har doim ko‘p ma’noli deyish noto‘g‘ri ekanligi haqida fikrlar mavjud. Ko‘pincha qanotli birliklarning keng qo‘llanilishi ko‘pma’nolilik emas, balki uning ma’nosi umumlashganligidan darak beradi va ular qo‘llanadigan holatlar odatda bir xil bo‘ladi. Masalan, *Le Saint des Saints* (lot. Sanctum Sanctorum), ya’ni *Avliyolarning avliyosi* qanotli iborasi “eng muqaddas”, “eng tabarruk” ma’nolarini anglatadi:

1) *En ouvrants les portes avec une indicible prestesse, elle était parvenue avec sa maîtresse dans **le sanctum sanctorum**, je veux dire le cabinet de toilette, inaccessible au reste de la maison* (Mérimée).

2) *M.Gantreu dut essuer ses lorgnons que l’émotion avait embués et fit pénétrer le disciple dans la réserve aux instruments, **le Saint des Saints*** (Cesbron).

Ushbu misollardan ko‘rinadiki, mazkur qanotli ibora birinchi misolda joy, makonga nisbatan (yuvinish xonasi nazarda tutilgan), ikkinchi misolda esa

asboblari zahirasiga nisbatan qo'llangan. Har ikki misolda ham iboradagi "eng muqaddas", "eng tabarruk" ma'nolari anglanmoqda.

N.D.Fedorenko va L.I.Sokolskayalarning "qanotli birliklar har doim o'zi yuzaga kelgan vaziyat bilan assotsiatsiyalanadi", [11, 38] degan fikrlari ularning mustaqil ma'nosi yo'qligini anglatmaydi. Agar qanotli birliklar o'z mustaqil ma'nosiga ega bo'lmaganida, ular hech qachon til birligiga aylanmagan bo'lar edi. Qanotli so'zlarning semantik xususiyatlari, asl kelib chiqish ildizi ularning yuzaga kelish holati haqida, ularning muallif yoki manbasi bilan bog'liqligi qo'shimcha assotsiatsiya bilan ma'no doirasini kengaytiradi, ularga o'ziga xos emotsional kayfiyat bag'ishlaydi va ba'zan stilistik mustahkamligini ko'rsatadi.

Masalan, *L'État c'est moi*, ya'ni *Davlat bu – men* qanotli iborasi o'z shaxsini yuqori qo'yadigan, o'zini jamiyatda eng ahamiyatli shaxs deb hisoblaydigan insonlarni tasvirlashda qo'llanadi. Bilamizki, ushbu qanotli ibora Lyudovik XIV ga mansub va yakkahokimlikning timsolidir. Lekin iboradagi butun boshli bir xalqqa, jamiyatga xizmat qiladigan, barcha uchun umumiy bo'lgan tizimga nisbatan faqatgina o'z xususiy mulki sifatida fikr bildirilishining o'zi iboraning tub ma'nosini ko'rsatadi.

Demak, qanotli iboralar odatiy bo'lmagan, alohida til birligidir. Ular har qanday barqaror, alohida shakllangan til birligida mavjud bo'lgan qator farqlovchi xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga, boshqa til birliklaridan o'ziga xos semantik bo'lakligi, asar yoki uni yaratgan muallif haqida genetik xotira paydo qilish xususiyatlari bilan farqlanadi.

Enfant prodigue, ya'ni *Adashgan o'g'il* qanotli iborasining asosiy ma'nosi yo'lini yo'qotgan, axloqan beqaror, yomon yo'lga kirgan, lekin o'z xatolari uchun tavba qilishga tayyor bo'lgan ushbu adashgan o'g'il haqidagi Bibliya masalini "genetik xotira" yodga soladi. Ma'lumki, u yoki bu qanotli iborani qo'llaydigan shaxs qoidaga ko'ra, uning manbasi haqida ma'lumotga yoki tasavvurga ega.

Qanotli iboralarning aynan ushbu xususiyati ularni maqollar, aforizmlar, iboralardan farqli o'laroq, "badiiy-bilimdon doiralarga tegishli" degan tushunchani yoqlashimizga sabab bo'ladi.

Tilshunos V.Xlebda tomonidan manbaga nisbatan “genetik xotira” mavjudligiga shubha bildirilgan. Muallif ba’zi bir o’tkazilgan so’rov natijalariga ishora qilib, manba bilan bog‘liklik bizni qiziqtiradigan birlikning faqat “qandaydir potentsiya” [14, 157-207] ekanligini yozadi.

Bizningcha, ba’zi doiradagi til vakillarini qanotli birliklarning manbalari bilan tanishtirish bo’yicha o’tkazgan so’rovlari qiziqarli, lekin uning asosida berilgan xulosalarni yoqlay olmaymiz.

Minglab so’z va iboralarning alohida shaxslar yoki alohida ijtimoiy guruhning nutqi tarkibiga kiritilmaganligi ularning ushbu til tizimi elementi emasligini bildirmaydi. Xuddi shu kabi, ko’plab qanotli birliklarning paydo bo’lish tarixini bilmaslik, bu birliklarning ikkinchi assotsiativ rejaga ega emasligini, manba bilan genetik bog‘liq emasligini anglatmaydi. Shuningdek, qanotli so’zlar fondining muayyan qismi ma’lum davrlardagi ko’pchilik til vakillariga tanish.

Masalan, fransuz tilidagi XVI asrning birinchi yarmiga mansub *Pot-au lait de la Perrette*, XVII asr boshlarida vujudga kelgan *L’État c’est moi*, yoki XIX asrga mansub *Cherchez la femme!*, *L’âge de Balzac* kabi qanotli iboralarni bilmasliklarini tasavvur qilish qiyin.

Til vakillarining genetik xotirasida saqlanadigan semantik “bo’lak” barcha qanotli birliklarga xosdir. Ushbu belgi asosida qanotli so’z va qanotli iboralar vujudga keladi. Bu har qanday milliy tilning “aforizm” yoki “ibratli fikr” umumiy nomi ostida birlashtiradigan shuningdek, mashhur badiiy sitatalarning keng qatlamiga xosdir.

Tabiiyki, qanotli iboralar ta’limoti leksikologiya, frazeologiya, aforistika, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik fanlari bilan kesishadi. Badiiy, publitsistik va ilmiy matnlardan olingan sitatalar, san’at asarlaridan olingan parchalar bilan to’ldirilgan qanotli birliklar fondi “noma’lum” (markerlanmagan) leksemalar, “noma’lum” frazeologik birliklar, “noma’lum” barqaror birliklarni to’ldirish manbai hisoblanadi.

Qanotli so’z va iboralar haqidagi ta’limotning paydo bo’lishi – bizning nazarimizda zamonaviy tilshunoslikdagi alohidalik ko’rinish sifatida

gavdalanmoqda. “Qanotli soʻzlar” terminining majoziyliigi koʻp yillar mobaynida tilshunoslarning eʼtiborini tortmadi va ushbu til birligi bilan asosan, filolog-adabiyotshunoslar shugʻullanishdi. Shunga koʻra, XIX asrda va XX asrning birinchi yarmidagi lugʻatlar va qoʻllanmalardagi qanotli birliklar xususiyatlarini taʼriflashga taʼsir qila olmaganlar.

Soʻnggi davrlarda ilmiy-texnik yangiliklar taʼsirida insonlarning hayot tarzi hamda adabiyot va sanʼatdagi yutuqlari, yangi ommaviy axborot vositalarining nisbatan hammaboplashuvi qanotli birliklardan ogʻzaki va yozma ravishda foydalanuvchi til vakillari doirasini sezilarli darajada kengaytirdi.

XULOSA

Qanotli birliklar tuzilishiga koʻra soʻz, soʻz birikmasi va gapga teng boʻlgan, semantik jihatdan yaxlit maʼno anglatadigan hamda tildan-tilga tez oʻzlashuvchanligi, chuqur fikrlarni, murakkab holat va xarakterlarning maʼnosini loʻnda shaklda, aniq hamda obrazli ifodalab bera olishi bilan xarakterlanadi. Ular obrazlilik, turgʻunlik, ongda qayta inʼikos etuvchanlik, qoʻllanuvchanlik, taʼsirchanlik, loʻndalik, biror voqea yoki hodisa bilan assotsiatsiyalanuvchi, muallif yoki aniq manbaga egalik xususiyatlarini oʻzida jamlagan alohida til birligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ашукин Н.С., Ашукин М.Г. Крылатые слова. Литературные цитаты. Образные выражения. – Москва: Госполтиздат, 1955. – 668 с.
2. Берков В.П., Мокиенко В.М., Шулежкова С.Г. Большой словарь крылатых слов русского языка. – Москва: Русские словари, 2000. – 624 с.
3. Займовский С.Г. Крылатые слова. Справочник цитаты и афоризма. – Москва-Ленинград: Госиздат, 1930. – 493 с.
4. Isakova G.N. Fransuz tili qanotli soʻzlarining semantik va stilistik xususiyatlari. Filol. fan. dok... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. –78 b.
5. Коваль А.П., Коптилов В.В. Крылаті слова – важливий стилістичний засіб // Українська мова і література в школі. 1964. №7. – С. 29-30.

6. Максимов С.В. Крылатые слова. – Москва, 1891; 2-е изд. – Москва, 1899; 3-е изд. – Москва, 1955; 4-е изд. – Красноярск: Кн. Изд-во, 1989. – 390 с.
7. Михельсон М.И. Русская мысль и речь. Свое и чужое. Опыт русской фразеологии. Сборник образных слов и иносказаний. Т. 1. А-О. – СПб., 1902. – 779 с.; Т. 2. П-В. – СПб., 1903. – 580 с. Стер-тип. Изд-во Терра, 1994.
8. Прохоров Ю.Е. Лингвострановедческое описание русской афористики в учебных целях. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: 1977. – 25 с.
9. Райхштейн А.Д. Немецкие устойчивые фразы. – Москва: Просвещение, 1971. – 184 с.
10. Тимошенко И.Е. Литературные первоисточники и протатипы трехсотрусских пословиц и поговорок. – Киев: Типография П.Барского, 1897. – 174 с.
11. Федоронко Н.Т., Сокольская Л.И. Афористика. – Москва: Наука, 1990. – С. 38.
12. Фелицына В.П., Прохоров Ю.Е. Русские пословицы, поговорки и крылатые выражения. Лингвострановедческий словарь. – Москва: Русский язык, 1980. – С. 3-17.
13. Шулежкова С.Г. Крылатые выражения русского языка, их источники и развитие. – Москва: Азбуковник, 2002. – С. 19.
14. Chlebda W. Szkice o skrzydlatych slowach. Interpretacje lingwistyczne. – Opole: Wydawnictwo Uniwersytetu Opolskiego, 2005. – P. 157-207.